

CHO'NG'ARA EKSKLAVI TURISTIK SALOHIYATINING IQTISODIY- GEOGRAFIK TAHLILI

Mahmudov Muhammadsodiq Muhammadqul o'g'li

Namangan davlat universiteti, Geografiya va ekologiya asoslari kafedrası mustaqil
tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Farg'ona viloyati, Rishton tumani tarkibidagi, ammo geografik jihatdan Qirg'iziston Respublikasi Batken viloyati hududida joylashgan Cho'ng'ara eksklavining – geosiyosiy jihatdan alohida mavqega ega qishloqning – turistik salohiyati iqtisodiy-geografik nuqtai nazardan tahlil etilgan. Tadqiqotda ziyorat turizmi (Yigit Pirim ziyoratohi), gastronomik turizm ("Cho'ng'ara guruchi" brendi) va ekoturizm yo'nalishlari ko'rib chiqilgan. Cho'ng'ara MFY raisi bilan o'tkazilgan maydon suhbatı (2026-yil mart) asosida tashrif buyuruvchilar oqimining ekspert bahosi keltirilgan: kuzatuvlarga ko'ra may–avgust oylarida oyiga 1 500–2 000 nafar, yiliga taxminan 6 000–8 000 nafar tashrif buyuruvchi kelishi mumkin. Turizm turi bo'yicha taqsimot rekreatsion (70%), ziyorat (20%), gastronomik (5%) va ekoturizm (5%) ko'rinishida shakllangan. So'x daryosi ustidan Sarqo'ron osma ko'prigi qurilishi orqali asosiy O'zbekiston hududiga masofani sezilarli qisqartirish imkonini beruvchi konseptual infratuzilma yechimi taklif etilgan.

Kalit so'zlar: anklav, eksklav, ziyorat turizmi, rekreatsion turizm, gastronomik turizm, ekoturizm, Cho'ng'ara, Yigit Pirim, Sarqo'ron ko'prigi, geosiyosiy izolyatsiyalanganlik, So'x.

ЭКОНОМИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТУРИСТИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ЭКСКЛАВА ЧУНГАРА

Аннотация. В данной статье туристический потенциал эксклава Чунгара – кишлака с особым геополитическим положением, входящего в состав Риштанского района Ферганской области Республики Узбекистан, но географически расположенного на территории Баткенской области Кыргызской Республики, – анализируется с экономико-географической точки зрения. В исследовании рассмотрены направления паломнического туризма (мазар Йигит Пирим), гастрономического туризма (бренд «Чунгарский рис») и экотуризма. На основе полевой беседы с председателем схода граждан (МФЙ) кишлака Чунгара (март 2026 г.) приведена экспертная оценка потока посетителей: согласно наблюдениям, в мае–августе кишлак может посещать около 1 500–2 000 человек в месяц, то есть примерно 6 000–8 000 человек в год. Распределение по видам туризма сложилось следующим образом: рекреационный (70%), паломнический (20%), гастрономический (5%) и экотуризм (5%). Предложено концептуальное инфраструктурное решение – строительство подвесного моста Саркурон через реку Сох, позволяющего значительно сократить расстояние до основной территории Узбекистана.

Ключевые слова: анклав, эксклав, паломнический туризм, рекреационный туризм, гастрономический туризм, экотуризм, Чунгара, Йигит Пирим, мост Саркурон, геополитическая изолированность, Сох.

ECONOMIC-GEOGRAPHICAL ANALYSIS OF THE TOURIST POTENTIAL OF THE CHONGARA EXCLAVE

Abstract. This article analyses, from an economic-geographical perspective, the tourist potential of the Chongara exclave – a village with a distinctive geopolitical status that belongs administratively to Rishtan District of the Fergana Region of the Republic of Uzbekistan, yet is geographically located within the Batken Region of the Kyrgyz Republic.

The study examines pilgrimage tourism (the Yigit Pirim shrine), gastronomic tourism (the “Chongara rice” brand), and ecotourism. Based on a field interview with the head of the village citizens’ assembly (MFY) conducted in March 2026, an expert estimate of the visitor flow is presented: according to these observations, between 1,500 and 2,000 visitors per month may arrive during May–August, amounting to roughly 6,000–8,000 visitors per year. The distribution by type of tourism is as follows: recreational (70%), pilgrimage (20%), gastronomic (5%), and ecotourism (5%). A conceptual infrastructure solution is proposed – the construction of the Sarkurgan suspension bridge across the Sokh River, which would significantly reduce the distance to Uzbekistan’s mainland territory.

Keywords: *enclave, exclave, pilgrimage tourism, recreational tourism, gastronomic tourism, ecotourism, Chongara, Yigit Pirim, Sarkurgan bridge, geopolitical isolation, Sokh.*

Kirish. Geosiyosiy alohidalikka ega bo‘lgan eksklavlar zamonaviy iqtisodiy geografiyaning muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Sh.Z. Jumaxanov va A.M. Toshpo‘latov (2024) ta’kidlaganidek, anklav hududlardagi hududiy muammolar bu “mitti” hududlarni “ulkan strategik tugunlar”ga aylantiradi [26]. Shu bilan birga, akademik adabiyotlarda anklav hududlar asosan geosiyosiy, huquqiy va ijtimoiy-siyosiy jihatdan o‘rganilgan bo‘lib, ularning turizm salohiyati – xususan O‘rta Osiyo mintaqasida – yetarlicha tahlil qilinmagan.

Cho‘ng‘ara – O‘zbekiston Respublikasi Farg‘ona viloyati, Rishton tumani tarkibidagi eksklav bo‘lib, geografik jihatdan Qirg‘iziston Respublikasining Batken viloyati hududida joylashgan [30]. 1 676 nafar aholisi, So‘x daryosi bilan chegaralangan tabiiy muhiti, mintaqaviy miqyosda tanilayotgan “Cho‘ng‘ara guruchi” mahsuloti va Yigit Pirim ziyoratohi mavjudligiga qaramay, qishloq turistik-iqtisodiy jihatdan tizimli o‘rganilmagan bo‘lib qolmoqda [3].

Tadqiqotning maqsadi Cho‘ng‘ara eksklavi turistik salohiyatini maydon tadqiqoti va qiyosiy tahlil asosida iqtisodiy-geografik jihatdan baholash hamda konseptual rivojlanish yo‘nalishlarini asoslashdan iborat. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati esa shundaki, bugungi kungacha Cho‘ng‘araning turistik oqimi turizm turlari bo‘yicha maydon tadqiqoti asosida miqdoriy baholanmagan, uning infratuzilma ehtiyojlari ilmiy jihatdan tahlil etilmagan va geosiyosiy izolyatsiyalanganlikning turizmga ta’siri o‘rganilmagan. Ushbu maqola ana shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mazkur maqolada monografik tahlil, maydon tadqiqoti (bevosita suhbat), geografik o‘lchov, qiyosiy-geografik tahlil va SWOT-tahlil usullaridan foydalanilgan. Tadqiqotning nazariy asosini anklav va eksklav turizmi bo‘yicha jahon va mintaqaviy ilmiy adabiyotlar tashkil etadi.

Anklav va eksklav turizmi nazariyasi jahon ilmida nisbatan yangi yo‘nalish hisoblanadi. Sh.Z. Jumaxanov va A.M. Toshpo‘latov (2024) MES (Mainland–Enclave–Surrounding state) uchburchagi kontseptsiyasini tahlil etib, anklav hududlar uchun to‘rt vektorli munosabatlar tizimini asoslab bergan [26], Sh.Z. Jumaxanov (2023) esa Markaziy Osiyo anklav/eksklav hududlarini iqtisodiy-geografik jihatdan tadqiq etishning metodologik asoslarini ishlab chiqqan [7]. D. Timothy (2020) geosiyosiy alohidalik o‘z-o‘zicha o‘ziga xos turistik identifikator – “chegaradan tashqarida bo‘lish” tajribasi – hosil qilishini ko‘rsatgan [24], J. Saarinen (2017) esa anklavlarda “hududiy mahsulotlashtirish” (territorial productization) tushunchasini taklif etib, geosiyosiy o‘ziga xoslikni iqtisodiy resursga aylantirish imkoniyatini asoslab bergan [18].

Chegaraviy turizm tadqiqotlarida I. Poulaki, D. Sdrali va A. Apostolopoulou (2020) Seuta pene-eksklavi misolida chegara o‘tishni yengillashtirish tashrif buyuruvchilar oqimiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini aniqlagan [14], A. Stoffelen, D. Ioannides va D. Vanneste (2017) Yevropa chegaraviy hududlarida ikki tomonlama hamkorlik turizm salohiyatini kengaytirishini ko‘rsatgan [23]. A. Sergeyeva va hammualliflar (2022) Qozog‘iston–

O'zbekiston chegaraviy hududida barqaror turizm imkoniyatlarini tadqiq etgan bo'lib, bu O'rta Osiyo mintaqasi bo'yicha metodologik jihatdan eng yaqin tadqiqotlardan biri hisoblanadi [20].

Ziyorat turizmi sohasida J. Choe (2024) islomiy ziyoratgohlarda "niyat ziyorati" motivatsiyasining barqarorligini ta'kidlagan [4], M. Romanelli, L. Barile va G. Pellegrino (2021) esa diniy ziyoratgohlar atrofida barqaror turizm modelini asoslab, mahalliy aholi daromadiga ijobiy ta'sirini ko'rsatgan [17]. Gastronomik turizm bo'yicha K.L. Sidali, E. Kastenholz va R. Bianchi (2015) hududiy maxsus mahsulotni brendlashtirish destinatsiya imijiga sezilarli hissa qo'shishini empirik jihatdan isbotlagan [22], A. Vujko va hammualliflar (2026) esa mahalliy gastronomik mahsulot asosida destinatsiya identifikatorini shakllantirishni SEM usuli orqali asoslab bergan [28]. Markaziy Osiyo mintaqasida G. Usmonova, S.K. Dixit va S. Wanhill (2022) jamoaviy asosda turizm (CBT) modelining samarali ishlashini ko'rsatgan [27], O. Saidmamatov va hammualliflar (2020) hamda Sh. Habibulloev va hammualliflar (2024) mintaqadagi ekoturizm salohiyatini o'rgangan [19, 6].

Rasmiy statistik ma'lumotlar mavjud bo'lmagan, geografik jihatdan murakkab hududlarda boshqaruv organlari vakillari bilan yarim strukturalashtirilgan suhbat (semi-structured interview) usuli birlamchi ma'lumot yig'ishning muhim ilmiy yondashuvlaridan biri hisoblanadi. H. Kallio va hammualliflar (2016) ushbu usulning ilmiy qat'iyligini tizimli tahlillar asosida asoslab, uning tadqiqot natijalari ishonchliligi va obyektivligini ta'minlashini ko'rsatgan [9], S. Cavalleri (2022) esa qishloq turizmini o'rganishda mahalliy hamjamiyat vakillari bilan o'tkazilgan chuqurlashtirilgan suhbatlarni muhim birlamchi manba sifatida e'tirof etgan [2]. Shu metodologik yondashuv asosida Cho'ng'ara MFY raisi bilan 2026-yil mart oyida o'tkazilgan suhbat tadqiqotning asosiy birlamchi manbasi sifatida qabul qilindi [3]. Geografik masofalar Google Maps yordamida muallif tomonidan taxminiy o'lchangan [11], chegaraviy rejimlar esa uch mezon – geografik izolyatsiya darajasi, chegara rejimi turi va turistik integratsiya ko'rsatkichi – asosida qiyoslangan [24, 14, 23].

Natijalar va muhokama. Cho'ng'ara 260 gektarlik maydoni bilan O'zbekiston Farg'ona viloyati, Rishton tumani tarkibiga kiradi, biroq geografik jihatdan Qirg'iziston Respublikasining Batken viloyati hududida joylashgan [30]. Qishloq So'x daryosining o'ng qirg'og'ida joylashgan bo'lib, daryoning chap tomoni Batken viloyati hududiga kiradi. Sh.Z. Jumaxanov va A.M. Toshpo'latov (2024) ta'riflagan MES uchburchagi doirasida O'zbekiston asosiy davlat, Cho'ng'ara eksklav hudud, Qirg'iziston esa o'rab turuvchi davlat sifatida namoyon bo'ladi [26].

1-jadval

Cho'ng'ara eksklavi ayrim demografik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	Ma'lumot
Umumiy aholi soni	1 676 nafar
Xonadonlar soni	303 ta
Oilalar soni	427 ta
Umumta'lim maktabi	300 o'quvchi sig'imli 1 ta maktab
Tibbiyot muassasasi	1 ta, 2023-yildan oilaviy shifokorlik punkti

Izoh: Jadval muallif tomonidan ekspert baholash usuli xulosalari asosida tuzilgan

Qishloqning 260 gektarlik maydonidan 85 gektardan ortig'ini aholi yashash joylari va tomorqalar, qolgan qismini sholizorlar, yaylovlar, bog'lar va So'x daryosi o'zani egallaydi. 303 xonadonning qariyb 90 foizi (272 ta xonadon) taxminan 100 gektar sholipoya yerida sholichilik bilan shug'ullanadi: yillik guruch hosili 350–400 tonnani tashkil etib, bir oila o'rtacha 1 500–2 000 kg guruch yetishtiradi va uni 30 000–50 000 so'm/kg narxda sotadi [3].

Maydon tadqiqoti ma'lumotlariga ko'ra qishloqning umumiy aholisi 1 676 nafarni (1-jadval) tashkil etadi [30], shundan taxminan 1 376 nafari O'zbekiston, qolgan ~300 nafari esa (asosan kelin bo'lib kelgan, fuqaroligini olmagan) Qirg'iziston fuqarolaridir [3]. Aholi 303 xonadon va 427 oiladan iborat bo'lib, milliy tarkibida ~95% qirg'iz, ~5% o'zbek va tojiklar mavjud [30, 3]. Qishloqda bitta umumta'lim maktabi (1–11-sinflar, 280 dan ortiq o'quvchi) hamda 2023-yildan oilaviy shifokorlik punkti maqomidagi bitta tibbiyot muassasasi faoliyat yuritadi [3].

Cho'ng'araga tashrif buyuruvchilar soni rasmiy statistika asosida qayd etilmagan, mavjud adabiyotlarda ham bu ko'rsatkich yoritilmagan. MFY raisi kuzatuvlariga ko'ra asosiy mavsumda (may–avgust) oyiga taxminan 1 500–2 000 nafar tashrif buyuruvchi kelishi kuzatiladi; bu muallif hisobi asosida yillik 6 000–8 000 nafarni tashkil etishi mumkin [3]. R. Nunkoo, S.L.J. Smith va H. Ramkissoon (2016) ta'kidlaganidek, anklavlarda rasmiy statistika mavjud bo'lmagan holatlarda mahalliy manfaatdor tomonlar kuzatuvlari muhim birlamchi ma'lumot manbayi bo'lib xizmat qilishi mumkin [12].

Turizm turlari bo'yicha taqsimot tahlili (MFY raisi ekspert bahosi [3]) tashrif buyuruvchilarning katta qismi – 70% – rekreatsion maqsadda, ya'ni yiliga taxminan 4 200–5 600 nafar kishi So'x daryosi bo'yi, choyxonalar, o'yin maydonlari va kemada suzish joylarida dam olish uchun kelishini ko'rsatadi. Ziyorat turizmi 20% (yiliga ~1 200–1 600 nafar) ulush bilan Yigit Pirim ziyoratohi atrofida, asosan farzand so'rash va niyat ziyorati motivatsiyasida shakllanadi. Gastronomik turizm va ekoturizm esa har biri 5% (yiliga 300–400 nafardan) ulushga ega bo'lib, mos ravishda "Cho'ng'ara guruchi" hamda daryobo'yi va qishloq muhiti atrofida tashkil topgan, ammo hali rivojlanmagan segment hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlar yig'indisida yillik oqim 6 000–8 000 nafarni tashkil etadi. M. Romanelli va hammualliflar (2021) diniy ziyoratgohlar atrofidagi barqaror turizm modelini [17], J. Choe (2024) esa "niyat ziyorati" motivatsiyasining iqtisodiy pasayish davrida ham barqarorligini asoslab bergan [4]; gastronomik va ekoturizm segmentlarining rivojlanishi G. Usmonova va hammualliflar (2022) tahlil etgan CBT modeli orqali mumkin [27].

2-jadval

Tashrif buyuruvchilar yosh va jins tarkibi (MFY raisi ekspert bahosi, [3])

Ko'rsatkich	Ulush (%)	Izoh
YOSH TARKIBI		
Maktab yoshi (7–18 yosh)	40%	Maktab ta'tillarida ota-onasi bilan keladiganlar ustunlik qiladi
Mehnat yoshi (18–50 yosh)	40%	Asosiy tashrif buyuruvchilar guruhi; ko'pincha oila bilan keladi
Keksalar (50 yoshdan yuqori)	20%	Asosan ziyorat maqsadida; niyat ziyoratchilari ko'p
JINS TARKIBI		
Ayollar	65%	Ziyorat va rekreatsiya turlarida ayollar ko'pchilikni tashkil etadi
Erkaklar	35%	Asosan rekreatsion va gastronomik turizm maqsadida keladi

Izoh: Jadval muallif tomonidan ekspert baholash usuli xulosalari asosida tuzilgan

Tashrif buyuruvchilarning yosh va jins tarkibi tahlili shuni ko'rsatadiki, maktab yoshidagilar (7–18 yosh) 40% bilan eng katta guruhlardan birini tashkil etadi va bu maktab ta'tillaridagi oilaviy safar madaniyatini aks ettiradi (2-jadval). Mehnat yoshidagi guruh (18–50 yosh) ham 40% ulushga ega bo'lib, asosan oila bilan keladigan asosiy tashrif buyuruvchilar qatlamidir; 50 yoshdan yuqori keksalar esa 20% ulush bilan, ko'pincha ziyorat maqsadida tashrif buyuradi. Jins jihatidan ayollar 65% bilan ustunlik qiladi va bu ziyorat hamda rekreatsion turizm bilan bog'liq; erkaklar 35% ulush bilan, asosan rekreatsion va gastronomik maqsadda keladi. Ayollarning ko'pchilikni tashkil etishi M. Pourtaheri, A.

Rahmani Fazli va H. Ahmadi (2012) aniqlagan “niyat ziyorati” motivatsiyasi xususiyatlariga mos keladi [15].

Ziyorat turizmining asosiy resursi – Yigit Pirim ziyoratohi bo‘lib, u O‘zR Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktyabrda qarori bilan Moddiy madaniy meros milliy ro‘yxatiga kiritilgan [13, 29]. N. Abdulaxatov, T. G‘oziyev va I. To‘xtaboyev (2009) ilmiy risolasida Farg‘ona vodiysidagi ettita eng muqaddas ziyoratgoh ro‘yxatida “Yigit-Ali-Pirim Alining qadamjoyi” yettinchi o‘rinda keltirilgan [1, 67-bet]. Tashrif buyuruvchilarning asosiy motivatsiyasi farzand so‘rab kelishdan iborat bo‘lib [3], bu M. Pourtaheri va hammualliflar (2012) aniqlagan “niyat ziyorati” turiga mos keladi [15]. Ziyoratgohning chap tomonidagi muqaddas buloq suvidan aholining 60 foizi suv ta‘minotini amalga oshiradi [3], ziyoratgohning o‘zi esa “Oltin meros” xalqaro xayriya jamg‘armasi tasarrufida bo‘lib, mahalliy aholi tomonidan boshqariladi [31].

Rekreatsion turizm 70% ulush bilan asosiy segment hisoblanadi: tashrif buyuruvchilarning aksariyati So‘x daryosi bo‘yidagi choyxonalar, yozgi so‘rilar va kemada suzish joylari orqali dam olish maqsadida keladi. Bu segment tabiiy ravishda allaqachon rivojlangan bo‘lsa-da, tizimli marketing va infratuzilma yetishmovchiligi uning to‘liq imkoniyatlarini cheklab turadi.

Gastronomik turizm salohiyati “Cho‘ng‘ara guruchi” mahsuloti atrofida shakllanmoqda. K.L. Sidali, E. Kastenholz va R. Bianchi (2015) hududiy o‘ziga xos mahsulotni brendlashtirish destinatsiya imijiga sezilarli hissa qo‘shishini isbotlagan [22], D. Privitera, A. Nedelcu va V. Nicula (2018) gastronomik turizmni qishloq iqtisodiyotini diversifikatsiyalashtirishning samarali yo‘li sifatida tahlil etgan [16], A. Vujko va hammualliflar (2026) esa mahalliy gastronomik mahsulot asosida destinatsiya identifikatorini shakllantirishni SEM usuli orqali asoslab bergan [28]. MFY raisi tavsiyalariga ko‘ra mahallada “osh markazi” ochish, brendli qadoqda guruch sotish va tashrif buyuruvchilarga “Yigit Pirim” yozuvli suvenirlar taqdim etish ushbu segmentni jonlantirishi mumkin [3].

Ekoturizm yo‘nalishi So‘x daryosining qishloq qirg‘og‘ini yuvib o‘tishi bilan bog‘liq. O. Saidmamatov va hammualliflar (2020) O‘zbekistondagi suv-daryobo‘yi ekoturizmini nisbatan past sarmoya talab qiladigan, biroq hali rivojlanmagan segment sifatida aniqlagan [19], G. Usmonova va hammualliflar (2022) esa CBT modelining ekoturizm bilan samarali ishlashini ko‘rsatgan [27].

Maydon suhbatlari ma‘lumotlari Cho‘ng‘ara turistik infratuzilmasining asosan rekreatsion turizm (70%) ehtiyojlariga moslashganini ko‘rsatadi [3]. Qishloqda 9 ta choyxona (taxminan 270 nafarlik sig‘im bilan asosiy dam olish joyi), mavsumiy ishlaydigan 6 ta yozgi so‘ri (~240 nafarlik sig‘im), 2 ta doimiy va yozda qo‘shimcha 4 ta oshxona (“Cho‘ng‘ara guruchi” asosiy taom sifatida), 4 ta (2026-yilda yana 1 ta qo‘shilgan) shirinlikhona va yengil taomlar shoxobchasi, bolalar va yoshlar uchun elektr mashinalar bilan jihozlangan 20 ta o‘yin markazi, shuningdek So‘x daryosida 12 kemacha bilan ishlaydigan 2 ta kemada suzish joyi faoliyat yuritadi [3].

Shu bilan birga, ziyorat turizmi (20%) uchun maxsus infratuzilma – axborot doskasi, yo‘l ko‘rsatkichlari yoki ziyoratchi qabul punkti – mavjud emas, gastronomik (5%) va ekoturizm (5%) segmentlari uchun ham maqsadli infratuzilma zaif. Qishloqda mehmonxona, to‘xtash joylari va belgilash doskasi yo‘qligi [3] tashrif buyuruvchilarni hududda ushlab qolish imkoniyatini cheklaydi. MFY raisi suhbatida asosiy to‘siqlar sifatida kirish yo‘llari holatining qoniqarsizligi, investitsiyaning yo‘qligi yoki juda kamligi, chegara o‘tish tartibining mahalliy aholi va tashrif buyuruvchilar uchun yengillashtirilmaganligi, tashrif buyuruvchilarni qishloqda ushlab qolish mexanizmlarining ishlab chiqilmaganligi hamda “Cho‘ng‘ara guruchi” va Yigit Pirim brendlarining rasmiy miqyosda marketinglanmaganligi qayd etildi [3].

Cho‘ng‘ara turizmining SWOT-tahlili uning kuchli va zaif tomonlari hamda imkoniyat va tahdidlarini yaxlit ko‘rsatadi. Kuchli tomonlar qatoriga barqaror tashrif oqimini (20%)

ta'minlovchi Yigit Pirim ziyoratohi [3, 13], yuqori rekreatsion salohiyat (70%) [3], brendlash uchun mos mahsulot bo'lgan yiliga 350–400 tonna guruch [3] hamda ekoturizm va kemada suzish resursi sifatidagi So'x daryosi kiradi. Zaif tomonlar – kirish infratuzilmasining (yo'l, mehmonxona) qoniqarsizligi [3], brendlash va marketing faoliyatining yo'qligi, ekoturizm va ziyorat infratuzilmasining zaifligi (5%+20% segment) hamda investitsiyaning yetishmasligi [3].

Imkoniyatlar sirasiga masofani ~3 km gacha qisqartiruvchi konseptual Sarqo'ron ko'prigi [11], GI sertifikati orqali "Cho'ng'ara guruchi"ni brendlash, Llívia modeli asosidagi elektron chegara rejimi va O'zbekiston–Qirg'iziston turizm hamkorligini kengaytirish [20] kiradi. Tahdidlar esa chegara holatining siyosiy o'zgarishlarga nozikligi, mavsumiy turizm tufayli yillik oqimning barqaror emasligi, qo'shni Qirg'iziston dam olish joylari bilan raqobat hamda muqaddas joy maqomini noo'rin tijoratlashtirish xavfidan iborat.

3-jadval

Cho'ng'ara eksklavi turistik infratuzilmasi va sig'im tahlili (2026-yil mart, [3])

Infratuzilma turi	Doimiy soni	Mavsumiy soni	Sig'im	Turizm turi / Xizmat yo'nalishi
Choyxonalar	9 ta	–	~270 nafar	Rekreatsion, gastronomik; asosiy dam olish joyi
Yozgi so'rilar	–	6 ta	~240 nafar	Rekreatsion; ochiq havoda dam olish uchun
Oshxonalar	2 ta (doimiy)	4 ta (yozda)	–	Gastronomik; "Cho'ng'ara guruchi" asosiy taom
Shirinlikhona va yengil taomlar shoxobchalari	4 ta (+1 ta 2026)	–	–	Gastronomik, rekreatsion; tez xizmat ko'rsatish
O'yin markazlari	20 ta	–	Elektr mashinalar	Rekreatsion; bolalar va yoshlar uchun
Kemada suzish joylari	2 ta	–	12 ta kemacha	Ekoturizm, rekreatsion; So'x daryosida
Infratuzilma yetishmovchiligi	–	–	–	Mehmonxona, to'xtash joylari, belgilash doskasi yo'q; ziyorat va ekoturizm segmenti zaif

Izoh: Jadval muallif tomonidan ekspert baholash usuli xulosalari asosida tuzilgan

Konseptual rivojlanish yo'nalishlari o'ziga xos. Asosiy davlat bilan Cho'ng'ara eksklavi eng yaqin kelgan nuqta Uchko'priq tumanidagi Sariqo'ron qishlog'i bo'lib, ular orasidagi to'g'ri chiziq masofasi taxminan 3 km ni tashkil etadi. Ushbu maqolada muallif tomonidan So'x daryosi ustidan quriladigan Sarqo'ron osma ko'prigi konseptual taklifi ilmiy muomalaga kiritilmoqda: ko'priqning bir uchi Cho'ng'ara tomonidan ko'tarilib, So'x tumani hududiga olib o'tiladi. Muallif tomonidan Google Maps yordamida o'lchangan taxminiy masofalar shuni ko'rsatadiki, chegara ochilishidan oldin Rishton orqali masofa ~70 km bo'lgan, chegara ochilgandan so'ng ~20 km ga qisqargan, So'x markazidan Cho'ng'ara janubigacha ~6 km, Sariqo'ron qishlog'idan Cho'ng'aragacha to'g'ri chiziq bo'yicha ~3 km masofa mavjud; ko'priq qurilgan taqdirda esa bu masofa taxminan 3 km darajasida saqlanib qoladi [11]. Mazkur taklif konseptual xarakterga ega bo'lib, texnik-iqtisodiy asoslash, geodezik o'lchov, ekologik ekspertiza va ikki davlat hukumatlari o'rtasidagi bitimni talab qiladi. I. Poulaki, D. Sdrali va A. Apostolopoulou (2020) Seuta pene-eksklavida infratuzilma ulanishining yaxshilanishi tashrif buyuruvchilar oqimiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan [14], bu esa mazkur taklif uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Chegaraviy yengillashtirish modellari uch mezon – geografik izolyatsiya darajasi, chegara rejimi turi va turistik integratsiya ko'rsatkichi – asosida qiyoslandi [24, 14, 23].

Gibraltar (Buyuk Britaniya / Ispaniya) modelida rezidentlar uchun soddashtirilgan o'tish, turistlar uchun standart pasport nazorati joriy etilgan bo'lib, mahalliy aholining erkin harakati va turizmga ijobiy ta'siriga qaramay, Brexit tufayli rejim murakkablashgan va siyosiy o'zgarishlarga nozik. Baarle-Hertog/Nassau (Belgiya / Niderlandiya) modelida Shengen zonasi tufayli chegara nazorati umuman yo'q va bu maksimal harakatchanlik hamda kuchli integratsiyani ta'minlaydi, biroq u faqat umumiy mintaqaviy bitimga a'zo davlatlarda qo'llanilishi mumkin. Llívia (Ispaniya eksklavi, Frantsiya hududi) modelida ikki tomonlama bitim asosida rezidentlar uchun maxsus yo'l koridori ajratilgan bo'lib, u siyosiy jihatdan barqaror va Shengen talabisiz amalga oshirilishi mumkin, ammo asosan doimiy rezidentlarga tegishli bo'lib, turistlar uchun alohida rejimni taqozo etadi. Campione d'Italia (Italiya / Shveytsariya) modelida maxsus iqtisodiy kelishuv, ikki valyuta tizimi va soddashtirilgan kirish iqtisodiy sinergiya hamda rivojlangan turizmni keltirib chiqargan, lekin murakkab moliyaviy hisob-kitob va katta boshlang'ich sarmoyani talab qiladi.

Qiyosiy tahlil natijasida Llívia modeli Cho'ng'araga metodologik jihatdan eng yaqin analog ekanligi aniqlandi, chunki ikki tomonlama bitim asosida maxsus yo'l koridori ajratish mexanizmi Shengen tizimini talab qilmaydi. Shu asosda Cho'ng'ara uchun O'zbekiston–Qirg'iziston ikki tomonlama bitimi doirasida mavsumiy elektron yo'llanma – “eksklav tashrif kartasi” – konseptual modeli taklif etiladi: u texnologik jihatdan nisbatan sodd va Llívia modeliga metodologik jihatdan yaqin bo'lsa-da, siyosiy muzokara hamda ikki tomonlama ratifikatsiyani talab qiladi va hali amaliy sinovdan o'tmagan.

Xulosa. Tadqiqot natijalari Cho'ng'ara eksklavining to'rt yo'nalishda aniq iqtisodiy salohiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Maydon kuzatuvlariga ko'ra qishloqqa yiliga taxminan 6 000–8 000 nafar tashrif buyuruvchi kelishi mumkin (bu rasmiy statistika emas, balki ekspert bahosidir). Turizm tuzilmasida rekreatsion turizm 70% bilan asosiy segment, Yigit Pirim ziyoratohi 20% bilan barqaror oqim manbayi bo'lib, gastronomik va ekoturizm har biri 5% ulush bilan rivojlanish salohiyati yuqori, ammo hali tizimli rivojlanmagan segmentlardir.

Sh.Z. Jumaxanov va A.M. Toshpo'latov (2024) ta'riflagan MES uchburchagi [26] hamda D. Timothy (2020) nazariyasi [24] doirasida Cho'ng'araning geosiyosiy izolyatsiyalanganligini rivojlanish imkoniyatiga aylantirish mumkin; J. Saarinen (2017) ta'kidlaganidek, geosiyosiy o'ziga xoslik hududiy mahsulotlashtirish orqali iqtisodiy resursga aylanishi mumkin [18].

Tahlil asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi. Birinchidan, Sarqo'ron osma ko'prigi texnik-iqtisodiy asosini ikki davlat hukumatlari darajasida konseptual bosqichda muhokama qilish maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, Llívia modeli asosida O'zbekiston–Qirg'iziston mavsumiy elektron “eksklav tashrif kartasi” tizimini joriy etish bo'yicha ikki tomonlama muzokarani boshlash lozim. Uchinchidan, “Cho'ng'ara guruchi” uchun GI sertifikatini olish va mahallada “osh markazi” ochish orqali gastronomik destinatsiya sifatida rivojlanish hamda 5% lik gastronomik segmentni kengaytirish tavsiya etiladi. To'rtinchidan, Yigit Pirim brendi bo'yicha “Oltin meros” xalqaro xayriya jamg'armasi bilan hamkorlikda suvenirlar tayyorlash, axborot doskasini o'rnatish va ijtimoiy tarmoqlarda marketing ishlarini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir [31].

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdulaxatov N., G'oziyev T., To'xtaboyev I. Shohimardon ziyoratohi. – Farg'ona: “Farg'ona” nashriyoti, 2009. – 72 b.
2. Cavalleri S., Baldeón M.E., Dury S., Kennedy G. Systemizing a rural livelihood diversification framework for sustainable community-based agritourism // *Frontiers in Sustainable Food Systems*. – 2022.
3. Cho'ng'ara MFY raisi bilan suhbat. – 2026-yil mart (bevosita maydon tadqiqoti). [Birlamchi manba; barcha raqamlar maydon kuzatuvlariga asoslangan ekspert bahosi hisoblanadi].

4. Choe J. Religious tourism: A comprehensive review of two decades // *Tourism Geographies*. – 2024. – Vol. 26, No. 1.
5. Eraliyev B., Ostonaqulov I. O'zbekiston ziyoratgohlari va qadamjolari. – Toshkent, 2014.
6. Habibulloev Sh., Komilov O., Karimov F., Raupov A. Factors influencing sustainable development in ecotourism settlements // *Heliyon*. – 2024. – Vol. 10, No. 3.
7. Jumaxanov Sh.Z. Markaziy Osiyo anklav/eksklav hududlarini iqtisodiy geografik va siyosiy geografik tadqiq etishning metodologik asoslari: g.f.d. (DSc) ilmiy darajasi uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2023. – 65 b.
8. Jumaxanov Sh.Z., Toshpo'latov A.M. Siyosiy geografiya. – Namangan: "Noshir", 2022. – 234 b.
9. Kallio H., Pietilä A.M., Johnson M., Kangasniemi M. Systematic methodological review: developing a framework for a qualitative semi-structured interview guide // *Journal of Advanced Nursing*. – 2016. – Vol. 72, No. 12. – P. 2954–2965.
10. Maxmudov M.M. So'x anklavida ziyorat turizmini rivojlantirish imkoniyatlari // *NamDU ilmiy xabarnomasi*. – 2026. – №2.
11. Muallif o'lchovi (Google Maps xaritasi asosida). – 2026-yil mart.
12. Nunkoo R., Smith S.L.J., Ramkissoon H. Residents' attitudes to tourism // *Tourism Management*. – 2016. – Vol. 55. – P. 66–78.
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga kiritish to'g'risida: 2019-yil 4-oktyabrdagi qaror.
14. Poulaki I., Sdrali D., Apostolopoulou A. Tourism and border facilitation in pene-exclaves // *Tourism Geographies*. – 2020. – Vol. 23, No. 4. – P. 611–629.
15. Pourtaheri M., Rahmani Fazli A., Ahmadi H. Rural religious tourism in Iran // *Journal of Geography and Regional Planning*. – 2012. – Vol. 5, No. 8. – P. 224–232.
16. Privitera D., Nedelcu A., Nicula V. Gastronomic and food tourism as an economic local resource // *GeoJournal of Tourism and Geosites*. – 2018. – Vol. 21, No. 1. – P. 143–152.
17. Romanelli M., Barile L., Pellegrino G. Towards a sustainability-oriented religious tourism // *Systems Research and Behavioral Science*. – 2021. – Vol. 38, No. 3.
18. Saarinen J. Territorial productization and the enclave problem in tourism // *Tourism Geographies*. – 2017. – Vol. 19, No. 1. – P. 92–106.
19. Saidmatov O., Mamarajabov I., Rudenko L., Filimonau V., Makhkamov N. Employing ecotourism opportunities for sustainability in the Aral Sea region // *Sustainability*. – 2020. – Vol. 12, No. 24. – Art. 10391.
20. Sergeyeva A., Akhmetova G., Mussabekova A., Rakhimzhanova I., Kenzhekhanova M. Development of cross-border tourism in the Kazakhstan–Uzbekistan border area // *Sustainability*. – 2022. – Vol. 14, No. 7. – Art. 4040.
21. Shamsiyeva M., Talabjonov S. Farg'ona vodiysi turizm salohiyati. – Farg'ona: FarDU, 2022.
22. Sidali K.L., Kastenholz E., Bianchi R. Food tourism, niche markets and products in rural tourism // *Annals of Tourism Research*. – 2015. – Vol. 53. – P. 148–162.
23. Stoffelen A., Ioannides D., Vanneste D. An integrative review of border tourism // *European Planning Studies*. – 2017. – Vol. 25, No. 6. – P. 1031–1048.
24. Timothy D.J. Enclave tourism: Borders, geopolitics, and the production of tourist spaces // *Tourism Geographies*. – 2020. – Vol. 22, No. 3. – P. 489–507.
25. To'xliyev I., Mamatov B. O'zbekiston turizm geografiyasi. – Toshkent: Fan, 2020.
26. Toshpo'latov A.M., Jumaxanov Sh.Z. Anklav hududlarni geografik tadqiq etishning konseptual asoslari // *FarDU Ilmiy xabarlari*. – 2024. – №4. – B. 172–179.
27. Usmonova G., Dixit S.K., Wanhill S. Community-based tourism in Central Asia: sustainability perspectives // *Sustainability*. – 2022. – Vol. 14, No. 13. – Art. 7841.

28. Vujko A., Dunjic M., Petrovic M.D., Kovacevic B., Tadic N. From local product to destination identity: leveraging local gastronomy for sustainable rural tourism // Agriculture. – 2026. – Vol. 15, No. 3.

INTERNET MANBALAR

29. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatiga kiritish to‘g‘risida: 2019-yil 4-oktyabrdagi qaror. – URL: <https://lex.uz/docs/-6895889>

30. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Farg‘ona viloyati demografik ko‘rsatkichlari. – URL: <https://farstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/18667-farg-ona-viloyatining-demografik-ko-rsatkichlari-raqamlarda.html>

31. Farg‘ona viloyati axborot portal. “Oltin meros” xalqaro xayriya jamg‘armasi haqida. Tashkil etilish asosi: O‘zR Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 27-sentabrdagi qarori [Elektron resurs]. – URL: <https://lex.uz/uz/docs/-476114>